

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Ч.Х.Чамолов	
Ифодаи мағхуми ишқ дар шеъри фарзона	435
Е.В.Шевченко	
Особенности историзма в романах пирамкула кадырова	439
Я.И.Нишанов	
Общечеловеческое значение сюжета, касающийся всего человечества.....	441
E.R.Adjemina	
Phraseological image and motivational model	444
Н.Д.Ирина	
Влияние философии Ницше на русскую литературу начала XX века.....	447
Н.Д.Ирина	
Литературный стиль и философские идеи в произведениях Франца Кафки: Абсурд, отчуждение и экзистенциальный кризис.....	453
Я.И.Нишанов	
Место и роль воспевания самой прекрасной истории в творчестве Дурбека	457

TILSHUNOSLIK

I.M.Qo'chqarov	
The grammatical features of speech acts in english	460
A.Z.Nurbek	
O'zbek tilshunosligida nutqiy aktlarga doir tadqiqotlar: usul va yondashuvlar	464
S.A.Yusupova	
Pragmatic use of respect in various communicative contexts	471
S.A.Yusupova	
linguistic expressions of respect in english and japanese	474
Sh.Y.Usmonova	
Comparative study of landscape terms in english and uzbek	477
M.K.Uktamova	
The main components expressing the meaning of the seme "Character" in english phraseological units	480
D.X.Madazizova	
Badiiy diskursda dialektlar individual nutq yaratuvchi vosita sifatida	483
Sh.B.Karimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi son komponentli frazeologizmlarda kvantitativlikning ifodalanishi ..	488
Sh.B.Karimova	
O'zbek tili va ingliz tillarida kvantitativlik birliklarining sathlararo tahlili	495
Sh.R.Karimjonova	
Semantic analysis of visual cognitive verbs in uzbek and english	500
Sh.B.Dushatova	
Euphemisms representing hidden and mysterious concepts	507
Sh.T.Axmadjonova	
Definition and components of comprehension skills	511
Sh.M.Aripova	
Linguocultural analysis of superstitions	515
Sh.M.Aripova	
O'zbek va nemis tillarida irim-sirimlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi leksemalar tahlili	519
Y.U.Abdurazzakov	
Frazeologik birliklarda jinsiy va yosh identifikatsiyasi: til va madaniyatning o'zaro aloqasi	522
N.X.Alieva	
Interlingual correspondence as a factor in enriching phraseology and identifying isomorphism and allomorphism of languages	525
R.U.Axrorova, M.T.Mamadaliyeva	
O'zbek amaliyotida turistik atamalarni standartlashtirishda ingliz tilining o'mni	530
M.S.G'aniyeva	
O'zbekiston ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonida gender munosabatlari hamda tadbirkor ayol fenomenining falsafiy talqini	533



УО'К: 81`22:811.512.133+811.111

**TILSHUNOSLIKDA KVANTITATIVLIK: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA
MIQDORIYLIKNING LINGVISTIK XUXUSIYATLARI**

**МЕЖУРОВНЕВЫЙ АНАЛИЗ КОЛИЧЕСТВЕННЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И
АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

**THE INTER-LEVEL ANALYSIS OF QUANTITATIVE UNITS IN UZBEK AND ENGLISH
LANGUAGES**

Karimova Shaxloza Boyquzi qizi
Farg'onan davlat universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida kvantitativilikning ifodalanishi, lingvistik vositalar va ularning qo'llanish xususiyatlari keng yoritilgan. Tadqiqotda fonetik, morfologik, leksik va frazeologik sathlarda kvantitativilikni ifodalash imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan. Kvantitativilikning matematika, fizika kabi aniq fanlardan lingvistikaga o'tishi va uni turli grammatik vositalar orqali ifodalash usullari chugur o'rganilgan. O'zbek va ingliz tillarida miqdoriylikni belgilovchi maxsus grammatik va leksik birliklar, jumladan, sonlar, numerativlar, quantifiers kabi vositalarning qo'llanilishi tahlil qilingan. O'zbek tilida hisob so'zlar va maxsus birliklar orqali miqdoriylik ifodalansa, ingliz tilida sanaladigan va sanalmaydigan otlar bilan birga quantifiers ishlataladi. Tadqiqot natijalari kvantitativilikning tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyatini ochib, til biriklarining miqdoriy ko'satkichlarini aniq va noaniq ko'rinishda ifodalash imkoniyatlarini ko'rsatadi. Bundan tashqari, kvantitativilikning o'zbek va ingliz tillaridagi umumiy va farqli jihatlari lingvistik tahlil asosida ochib berilgan. Ushbu maqola kvantitativilikni turli lingvistik darajalarda o'rganish uchun nazariy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Аннотация

В данной статье подробно исследуется выражение квантитативности в узбекском и английском языках, а также лингвистические средства и особенности их применения. Проведен детальный анализ возможностей выражения квантитативности на фонетическом, морфологическом, лексическом и фразеологическом уровнях. Изучено, как квантитативность, изначально присущая точным наукам, таким как математика и физика, применяется в лингвистике через различные грамматические средства. Рассмотрены особенности использования специальных грамматических и лексических единиц, таких как числительные, нумеративы, квантитативы. В узбекском языке квантитативность выражается с помощью счетных слов и специальных лексем, в то время как в английском языке используются quantifiers вместе с исчисляемыми и неисчисляемыми существительными. Результаты исследования подчеркивают научное значение квантитативности в языкознании, демонстрируя возможности точного и неточного выражения количественных показателей языковых единиц. Кроме того, выявлены общие и различительные черты квантитативности в узбекском и английском языках на основе лингвистического анализа. Статья служит теоретической и практической основой для изучения квантитативности на различных уровнях языков.

Abstract

This article explores the expression of quantitativeness in Uzbek and English, focusing on linguistic tools and their application. A detailed analysis of quantitativeness at phonetic, morphological, lexical, and phraseological levels has been conducted. The study examines how quantitativeness, originally a concept in exact sciences such as mathematics and physics, is applied in linguistics through various grammatical means. The use of specific grammatical and lexical units, including numerals, numeratives, and quantifiers, is analyzed. In Uzbek, quantitativeness is expressed through counting words and specific lexical units, while in English, quantifiers are used with countable and uncountable nouns. The results of the research highlight the scientific importance of quantitativeness in linguistics, showcasing its potential for precise and vague expression of quantitative indicators in linguistic units. Additionally, the study identifies commonalities and differences in the representation of quantitativeness in Uzbek and English based on linguistic analysis. This article serves as a theoretical and practical foundation for studying quantitativeness at various linguistic levels.

Kalit so'zlar: kvant, kvantitativilik, miqdor, miqdoriylik, miqdoriylik segmentatsiyasi, numerativlar, kvantitativlar.

Ключевые слова: квант, квантитативность, количество, количественность, количественная сегментация, нумеративы, квантитативы.

Key words: quantum, quantitativeness, quantity, quantification, quantitative segmentation, numeratives, quantifiers.

KIRISH

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridagi muhim tadqiqot obyektlaridan biri – kvantitativlikdir. Kvantitativlik atamasi ko'p hollarda miqdor tushunchasi bilan bog'lanadi va aksariyat tadqiqotlarda aynan shunday yuritiladi. Kvantitativlik termini bevosita matematika va fizika fanlariga tegishli. Aniq fanlar doirasida, kvant sonlar, kvant fizika, kvant mexanikasi, kvant psixologiyasi va hattoki, kvantitativ lingvistika kabi yo'nalishlar mavjud. "Kvant" so'zi aslida "Diskret (uzlukli, ayrim-ayrim) tabiatga ega bo'lgan fizik kattalik (harakat, energiya va shu kabilar), o'zgarishi mumkin bo'lgan eng kichik miqdor" [6] deb ta'riflanadi ya'nii, miqdorning minimal birlikda ifodalanishi bo'lib, fizika, lingvistika va boshqa sohalarda biror qiymatni bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

V.M.Solnsev terminni quyidagicha ta'riflaydi: "Kvantitativlik – turli darajadagi obyektlashtirishda miqdor tushunchasining (miqdor, son, ko'plik va boshqalar) majmuaviy g'oyalarini ifodalovchi lingvistik logiko-semantik kategoriya. Bunda miqdoriy segmentlash (turli tizimdagи predmetlarning ifodalanish tushunchasi) va kvantitativlik (segmentlashdan qat'iy nazar predmetlarning xohlagan miqdoriy o'lchovi) ni farqlash lozim" [8,34]. Demak, rus tilshunosligida miqdor tushunchasi tor doirada biror predmetning adadiga ishora etsa, kvantitativlik xohlagan turdagи obyektning miqdoriy ko'rsatkichlarini ifodalaydi va belgilab, ko'rsatib beradi.

Ingliz manbalarida, "kvantitativlik" so'zining asl mazmuni yanada izohlangan. Sababi, o'zbek va rus tillarida ishlataladigan bu so'z aynan ingliz tilidan olingan. Unga ko'ra, "kvantitativlik – quantity – biror (o'lchab bo'ladigan) predmetning miqdori yoki sonini bildiradi. Bunda miqdor sanalmaydigan otlar bilan, son esa sanaladigan otlar bilan birgalikda ishlataladi [1]. Bu ingliz tilining muhim grammatic qoidalardan bo'lib, sanaladigan otlar oldidan sonlar ishlatalib, ularni miqdorini belgilab ko'rsatishi mumkin. Sanalmaydigan otlar bilan esa miqdor ifodalovchi boshqa vositalar, ularning adadini ko'rsatishga yordam beradi. Masalan, *I have five apples* sanaladian ot aniq son orqali ifodalansa, *I have a lot of information* misolida ma'lumot sanalmaydigan ot maxsus lisoniy vosita yordamida ko'rsatilmoxda. Aynan shu grammatic xususiyat yordamida kvantitativlik tushunchasini oydinlashtirish mumkin, ya'nii miqdor yordamida biror bir obyektning adadini bildirsa, kvantitativlik esa xohlagan obyektning istalgan miqdoriy ko'rsatkichlarini ifodalab keladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kvantitativlik atamasi ko'p hollarda miqdor tushunchasi bilan bog'lanadi va aksariyat tadqiqotlarda aynan shunday yuritiladi. Kvantitativlik termini bevosita matematika va fizika fanlariga tegishli. Aniq fanlar doirasida, kvant sonlar, kvant fizika, kvant mexanikasi, kvant psixologiyasi va hattoki, kvantitativ lingvistika kabi yo'nalishlar mavjud.

Tilshunoslar tilni o'rganishda miqdorni anglatuvchi tushunchalarni alohida toifaga bo'ladilar va bu toifa "kvantitativlik" deb yuritiladi. Uning tarkibiy qismlariga miqdor, son-miqdor, ko'plik, birlik va harakat-miqdor kabi tushunchalar kiradi.

Kvantitativlikni o'rganishda quyidagi ikki asosiy holatni inobatga olish kerak:

1. Miqdoriylik segmentatsiyasi. Bu aniq bir obyektning miqdorini bildiradi. Bunda obyektning miqdori aniq ko'rsatilgan bo'ladi va ular birgalikda ishlataladi. Masalan, "ikkita olma", "o'nta non" kabi;
2. Kvantitativlik: umumi miqdorni bildirib keladi va ixtiyoriy obyektning istalgan miqdoriy ko'rsatkichini ifodalaydi. Bunda miqdorning aniq ko'rsatkichi emas, balki unga tegishli bo'lgan miqdorning umumi ko'lami ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, "ulkan daraxt", "ko'plab do'star", "onda-sonda uchrashuv" kabi.

Turli tillarda kvantitativlikning o'ziga xos ifoda vositalari mavjud va bunday xususiyatlar har bir tilning rivojlanish bosqichlarida shakllangan.

Ingliz tilida miqdor deyilganda, *quantity* so'zi orqali quyidagi ma'no turlari anglashiladi:

Amount – biror narsaning umumi miqdori; number – son; total – umumi yoki jami miqdor; aggregate – bir joyga yig'ilgan miqdor; sum – yig'indi; quota – ulush, bo'lak, qism; group-guruhi; size – o'lcham; mass – massa; weight – o'g'irlik; volume – bo'lim; bulk – asosiy bo'lak; load – to'liq yoki ulkan; consignment – yuk; expanse – biror narsaning ko'p qismi; extant – butun, yaroqli qism; length – uzunlik; area – hudud; quantum – birlik, aniq miqdor; proportion-proporsiya, butunning qismi; portion – bo'lak; part – qism; dose – doza, miqdor (tibbiyotda); dosage – o'lchov

TILSHUNOSLIK

miqdori (*tibbiyotda*); *kabi ma'nolarni ifodalaydi* [1]. Mukammal ta'rifga ega bo'lgan bu termin tadqiqotimiz obyekti hisoblangan kvantitativlik ifodalashi mumkin bo'lgan barcha tushunchalarni qamrab oladi.

O'zbek tilidagi miqdor atamasi ham o'ziga xos ta'rifga ega. "Miqdor – o'lchash, sanash mumkin bo'lgan narsalarning oz – ko'pligi, soni, chamasi" [6] ma'nolarini ifodalaydi. Miqdor matematik ifoda sifatida uzunlik, massa, yuza, jism hajmini ifodalovchi tushunchalarning umumlashma nomi sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy nutqayi nazardan, obyektning tashqi ko'rsatkichlari (kattaligi, soni, hajmi), hodisaning rivojlanishi va shu kabi holatlarga ishora beradi.

Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, kvantitativlik nafaqat sonni, balki o'lchov (uzunlik, masofa, og'irlik, hajm) va harakatning miqdorini ifodalaydi. Yuqorida berilgan ma'no turlaridan kelib chiqqan holda, kvantitativlikning ifoda maydoni kengroq va mukammalroqdir.

Bundan tashqari, ingliz tilida "quantitative" sifat turkumiga mansub bo'lib, *miqdoriy* deb tarjima qilinadi [7,550]. Mantiqan "kvantitativlik", "quantitativeness" orqali ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida ham "quantitativeness" so'zi "quantitative" so'zi orqali yasaladi va u keng qo'llaniladi [3]. Ingliz tilidagi ushbu leksema *kvantitativ* [kwa:n.tə.ter.trv] [4] deb talaffuz qilinadi va bu tadqiqotimizda ishlatayotgan, miqdoriylikni ifodalovchi atama hisoblanadi.

Ko'rinish turibdiki, miqdor – *quantity*, miqdoriy – *quantitative*, miqdoriylik – *quantitativeness*, ya'ni kvantitativlikni ingliz tilidan olingan so'zlarning o'zbekcha talqini sifatida tushunishimiz mumkin.

Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida tilarida umumiylar ma'noda kvantitativlik, ya'ni miqdorni – *quantity*, miqdor ifodalovchi vositalarni esa *quantifiers*, *numerativlar* deb ajratish mumkin. Buni chuquroq anglash uchun chog'ishtirilayotgan tillarning grammatikasiga tayanish lozim. Ingliz tilida miqdor ko'rsatkichini belgilovchi maxsus grammatic vositalar mavjud bo'lib, ular "quantifiers" deb ataladi. "Quantifier" atamasi, odatda, noaniq miqdoriy ko'rsatkich hisoblanadi, sanaladigan va sanalmaydigan otlar bilan birgalikda ishlatiladi hamda maxsus miqdor ifodalovchi so'zlar "quantitative words" (many, little, few, a lot, some va boshqalar) yordamida muayyan aniqlikka ega bo'ladi. Ba'zi hollarda bu noaniq olmoshlar – "*indefinite pronouns*" orqali ham ifodalanadi. Masalan, *somebody* – *kimdir*, *everyone* – *hamma*, *nothing* – *hech narsa* kabilar. Bundan tashqari, maxsus so'zlar (odatda, mustaqil so'zlar) orqali ham ifodalanishi mumkin [5,345]. O'zbek tilida miqdor ifodalovchi vositalar *numerativlar* hisoblanib, *hisob so'zlar* (*qultum*, *botmon*, *misqol*, *hovuch*, *chelak*, *payola*, *litr*, *santimetr*, *savat*, *gramm* va *boshqalar*) deb ham yuritiladi. Ingliz tilida esa, *numerativlar* o'lchov birliklari sanaladi. Numerativlar son va u ifodalab kelayotgan ot turkumiga mansub so'z o'rtasida qo'llanilib, uning o'lchovini bildirib keladi hamda narsa – predmetning miqdorini aniq ko'rsatkichlarini belgilashda hizmat qiladi. Masalan, *bir paqir* suv, *besh savat* non, *bir halta* o'rik, *olti litr yog'* kabi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek va ingliz tillarida biror narsalar uyumi yoki hayvonlar to'dasi ma'nosi miqdoriy ko'rsatkichini ifodalash uchun alohiда maxsus so'zlar mavjud. Ingliz tilida ularning xilma – xilligi ortiqroqdir. Masalan: maymunlar galasi – a bunch of monkeys/qushlar galasi – a flock of birds; bo'rilar to'dasi – a pack of wolves/zebralalar to'dasi – a herd of zebras kabi.

Ingliz tilidagi aniq miqdoriy ko'rsatkichlarni bevosita sonlar orqali ifoda etadi [2,89]. Noaniq ifodalar esa, *quantifiers* (*some*, *many*, *much*, *less*, *few*, *a few*, *little*, *a little*, *all*, *every* va *boshqalar*) yordamida amalga oshiriladi. O'zbek tilida esa, aniq miqdor son va numerativlar, noaniq miqdor maxsus leksik birliklar orqali beriladi. Bu leksik vositalar odatda sifat turkumiga xos bo'lib (*ba'zi*, *ko'p*, *oz*, *kam*, *yetarli*, *ozroq*, *hamma*, *har bir* va *boshqalar*), ingliz tilidagi kvantitativlikni ifodalovchi *quantifiersga* to'g'ri keladi.

XULOSA

O'zbek va ingliz tillaridagi ko'plab tadqiqotlarda qo'llaniladigan kvantitativlik atamasi – shaxs, narsa-predmet, harakat va holatlarning o'lchov, **chastota**, **daraja**, **aniqlik/noaniqlik**, **birlik/ko'plik** hamda **temporallik** kabi miqdoriy ko'rsatkichlarini ifodalovchi tizimli tushuncha. Kvantitativlik miqdoriylikni o'rganish va uni til birliklari orqali ifodalash jarayoni bo'lib, tilshunoslikda miqdor, son va hajmga oid tushunchalarni tahlil qilish uchun muhim asos yaratadi. U turli tillarda o'ziga xos lingvistik xususiyatlar orqali namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cambridge Dictionary. (n.d.). *Quantity*. In Cambridge Dictionary. Retrieved December 8, 2024, from <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/quantity>
2. Collins COBUILD English Grammar, 1990. – P.89.
3. Merriam-Webster. (n.d.). *Quantitativeness*. In Merriam-Webster.com dictionary. Retrieved December 8, 2024, from <https://www.merriam-webster.com/dictionary/quantitativeness>
4. Oxford Languages. *Oxford Languages Dictionary*.
5. The Oxford dictionary of English grammar. Oxford quick refence 2nd edition, 2014. – P.345.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati, 2-jild. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. Инглизча-ўзбекча лугат. – Тошкент, 2013. – 550 б.
8. Солнцев В.М. Лингвистическая типология. – М.: Наука, 1985. – С.34.